Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 1

YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT TAFAKKURIDAGI O‘ZGARISHLARNI TADQIQ ETISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ZARURATI

Gulijaxon Zokirovna Suyarkulova*
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
✉ guljaxonzokirovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida jamiyat tafakkurida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish va ularni tadqiq etishning ijtimoiy zaruratini asoslashdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlarning milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik faolligi, tanqidiy fikrlash va inson kapitali rivoji bilan uzviy bog‘liqligi asoslandi. Shuningdek, iqtisodiy-texnologik taraqqiyot, madaniy-axloqiy transformatsiyalar va sotsial-ekologik muammolarning zamonaviy tafakkurga ta’siri yoritildi. Jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlarni tadqiq etish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va zamonaviy ijtimoiy mentalitetni shakllantirishning muhim ilmiy asosi ekanligi xulosa qilindi.

Kalit so‘zlar

jamiyat tafakkuri, ijtimoiy ong, Yangi O‘zbekiston, tafakkur transformatsiyasi, milliy o‘zlik, ijtimoiy mentalitet, inson kapitali, ijtimoiy barqarorlik.

DOI: 10.5281/zenodo.23279321

Kirish

Jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlarni tadqiq etishning ijtimoiy zarurati, avvalo, milliy o‘zlikni anglashning yangi mazmun bilan boyishida namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonda an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy demokratik tamoyillar uyg‘unligi asosida milliy mentalitetning yangicha modeli shakllanmoqda. Bu jarayonda tarixiy xotira, ma’naviy meros va global sivilizatsion tajriba o‘zaro uyg‘unlashib, jamiyat a’zolarining dunyoqarashini kengaytirmoqda. Mazkur holatni ilmiy jihatdan tahlil qilish milliy taraqqiyot strategiyasining ma’naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, jamiyat tafakkuridagi transformatsiyalar ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy adolat masalalari bilan uzviy bog‘liq. Islohotlar jarayonida aholining ijtimoiy faolligi, tanqidiy fikrlashi va fuqarolik pozitsiyasining kuchayishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa ijtimoiy munosabatlarda ishonch muhitini shakllantirish, ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda profilaktik mexanizmlarni ishlab chiqish uchun jamiyat tafakkurini tadqiq etishni muhim ilmiy vazifaga aylantiradi.

Yangi O‘zbekistonda jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlarni tadqiq etishning yana bir muhim jihati – inson kapitali rivoji bilan bog‘liqdir. Zamonaviy bilim, innovatsion tafakkur va ijtimoiy mas’uliyatli fuqaro modeli jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Shu ma’noda, jamiyat ongidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish ta’lim-tarbiya tizimi, ma’naviy-ma’rifiy siyosat va ijtimoiy kommunikatsiyalar samaradorligini oshirishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Yangi O‘zbekistonda jamiyat tafakkurida kechayotgan o‘zgarishlarni tadqiq etish ijtimoiy hayotni barqaror va izchil rivojlantirish, islohotlarning insonparvar mazmunini chuqur anglash hamda zamonaviy ijtimoiy mentalitetni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bu tadqiqotlar jamiyat va davlat o‘rtasidagi ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim intellektual resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Jamiyat taraqqiyoti insoniyat sivilizatsiyasi rivojining murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. U iqtisodiy o‘sish, siyosiy barqarorlik va texnologik yangilanish bilan bir qatorda, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy holati, ijtimoiy ongi va tafakkur darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, jamiyat taraqqiyotining barqarorligi va izchilligi avvalo insonning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy faolligiga bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy falsafiy va ijtimoiy nazariyalarda jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy omillar bilan emas, balki ma’naviy, axloqiy va madaniy omillarning uyg‘un ta’siri natijasi sifatida talqin etiladi. Shu ma’noda, jamiyatdagi har qanday ijtimoiy o‘zgarishlar inson tafakkuri va ijtimoiy ongdagi transformatsiyalar orqali mustahkamlanadi. Tafakkur va ijtimoiy ongda yuz berayotgan yangilanishlar jamiyat taraqqiyotining ichki manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida jamiyat taraqqiyoti masalasi yangi mazmun kasb etib, u islohotlarning natijadorligi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va inson kapitalining rivoji bilan bevosita bog‘liq holda qaralmoqda. Shu bois, jamiyat taraqqiyotini falsafiy, ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilish mazkur paragrafning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Eng avvalo, “tafakkur”tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. “Falsafa: qomusiy lug‘at”da “tafakkur” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Tafakkur (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi” [1, 390] hisoblanadi. Psixologiya fanlari doktori, professor E.G‘oziev fikricha, “tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovotining, ongli harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi” [2, 3]. E.Z.Usmonovaning fikricha, “tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadigan jarayon bo‘lib, dastavval keng predmetli (amaliy) faoliyat tarzida namoyon bo‘ladi, keyinchalik u aqliy xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi” [3, 3]. Demak, tafakkur insonning amaliy faoliyati**,** ijtimoiy tajribasi va madaniy muhiti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan tafakkur jamiyatning madaniy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq. E.Frommning fikricha, insonning fikrlash tarzi uning ijtimoiy muhiti va psixologik holati bilan uzviy bog‘liq [4, 15-30]. Shuningdek, A.Komte va M.Veber tafakkurni jamiyat modernizatsiyasining asosiy omili sifatida ko‘rsatadilar [5, 98-100]. Ularga ko‘ra, fikrlash tarzi va dunyoqarashdagi transformatsiyalar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot zamonida an’anaviy fikrlash uslublari ko‘pincha zamonaviy muammolarni hal qilishda yetarli emas. Shu bois tafakkurdagi o‘zgarishlar quyidagi omillar asosida zarur:

Birinchidan, iqtisodiy va texnologik rivojlanish zamonaviy jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Innovatsion g‘oyalar va yangi sohalar paydo bo‘lishi jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun zarur shartlarni yaratadi. Lekin bu jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan cheklanmay, balki jamiyat a’zolarining fikrlash uslubi, tafakkuri va dunyoqarashida ham transformatsiyalarni talab qiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida yangi ishlab chiqarish sohalari, innovatsion biznes-modellar va global bozorda raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiy muhitda an’anaviy fikrlash qoidalari ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Masalan, startaplar va texnologiya kompaniyalari tez o‘zgaradigan bozor shartlariga moslashish uchun strategik va kreativ fikrlashni talab qiladi.

Iqtisodiy va texnologik rivojlanish faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash bilan cheklanmay, jamiyat a’zolarining fikrlash uslubini ham qayta shakllantiradi. Yangi innovatsion g‘oyalar va sohalar strategik, kritik va kreativ fikrlashni talab qiladi. Shuningdek, bu jarayon madaniy, falsafiy va ijtimoiy sohalarda ham o‘zgarishlar yuzaga keltirib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va insonning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, madaniy va axloqiy transformatsiyalar – global madaniy tajribalar va inson huquqlariga oid yangi talablar tafakkurni qayta shakllantirishni taqozo etadi. Hozirgi globallashuv davrida jamiyat a’zolari fikrlash uslubi va tafakkuridagi o‘zgarishlar madaniy va axloqiy transformatsiyalarsiz tasavvur etilishi qiyin.

Madaniy va axloqiy transformatsiyalar – global tajribalar, turli madaniyatlar o‘zaro ta’siri va inson huquqlariga oid yangi talablar natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon jamiyat a’zolarining fikrlash tarzi va qimmatlar sistemasini qayta shakllantirishni taqozo qiladi.

Uchinchidan, madaniy va axloqiy transformatsiyalar jamiyatning barqaror rivojlanishi va inson taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi: “global axloqiy va madaniy standartlar hamkorlikni rivojlantirishga, ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi; kreativ fikrlash va yangi g‘oyalar moddiy va texnologik rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydi; insonning dunyoqarashi, madaniy doirasi va axloqiy hissi rivojlanadi, bu uning ijtimoiy mas’uliyati va faolligini oshiradi. Madaniy va axloqiy transformatsiyalar global tajribalar va inson huquqlariga oid yangi talablar orqali yuzaga keladi” [6, 78-90]. Bu jarayon jamiyat a’zolarining fikrlash uslubi va tafakkurini qayta shakllantirishni talab qiladi. Madaniy transformatsiya insonning dunyoqarashi va kreativ fikrlashini rivojlantirsa, axloqiy transformatsiya uning ijtimoiy mas’uliyati va global standartlarga moslashuvini ta’minlaydi. Shu sababli, bu jarayonlar jamiyat taraqqiyotining muhim falsafiy va amaliy asosi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, hozirgi zamonaviy jamiyatda sotsial-ekologik muammolar global miqyosda ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy adolatni ta’minlash masalalari nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki jamiyat a’zolarining fikrlash tarzi va tafakkurida ham sezilarli o‘zgarishlar talab qiladi. Bu jarayon ijtimoiy falsafa, madaniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi kunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, ifloslanish, klimat o‘zgarishi va biodiversitetning yo‘qolishi jamiyat uchun katta tahdidlar yaratmoqda. Bu muammolar nafaqat iqtisodiy oqibatlar bilan, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o‘z aksini topadi. Masalan: atrof-muhitning ifloslanishi aholi salomatligiga ta’sir qiladi va ijtimoiy tenglik masalalarini kuchaytiradi; resurslardan noto‘g‘ri foydalanish kambag‘al va boy qatlamlar o‘rtasidagi farqni oshiradi, ijtimoiy adolatni buzadi. Tahlillar ko‘rsatadiki, bu muammolar jamiyat a’zolari fikrlashini faqat moddiy qiyinchiliklar nuqtai nazaridan emas, balki strategik va axloqiy jihatdan ham qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Xulosa

Jamiyat taraqqiyotining asosiy omili inson tafakkuridagi o‘zgarishlardir. Bu jarayon faqat bilim va mahoratni oshirish bilan cheklanmay, balki axloqiy, madaniy va falsafiy qadriyatlarni qayta nazardan o‘tkazishni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek: “jamiyat a’zolarida kritik fikrlash va yangicha dunyoqarashni rivojlantirish uchun ta’lim va ma’naviy tarbiya tizimlari takomillashtirilishi kerak; jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlar doimiy va uzluksiz bo‘lishi lozim, chunki global va texnologiyaviy jarayonlar doimiy ravishda yangi qiyinchilik va imkoniyatlar yaratadi; falsafiy bilimlar va analitik tafakkurning rivojlanishi jamiyat a’zolarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi” [7, 45-46]. Shu sababli, jamiyat tafakkuridagi o‘zgarishlar nafaqat zarur, balki falsafiy jihatdan ham asosli va kelajakka yo‘naltirilgan jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). - T.: Sharq, 2004. - 390 b.
2. G‘oziev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1990. - B. 3.
3. Usmonova E.Z. O‘quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? - T.: TDPU, 2000. - B. 3.
4. Fromm, E. The Sane Society. - London: Routledge, 2001. - P. 15-30.
5. Comte, A. The Positive Philosophy. - New York: Cosimo Classics, 2007. -P. 98-110.
6. Bell, D. The Coming of Post-Industrial Society. - New York: Basic Books, 1973. - P. 78-90.
7. Toffler, A. Future Shock. - New York: Random House, 1970. - P. 45-46.